

## TA'LIMDAGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING TA'LIM SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Sidikova Zulfiya<sup>1</sup>, Boltaboyev Norinjon<sup>2</sup>

<sup>1</sup>FarDU p.f.f.d. (PhD)

<sup>2</sup>FarDU 4-bosqich talabasi

<sup>2</sup>e-mail: [norinjon1@gmail.com](mailto:norinjon1@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Raqamli ta'lim, interaktiv metodlar, masofaviy o'qitish, sun'iy intellekt va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim sifati va samaradorligiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning afzalliklari va ularni ta'lim jarayoniga joriy etish muammolari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsion texnologiyalar, raqamli ta'lim, masofaviy o'qitish, AKT, interaktiv, gamifikatsiya, wordwall.net, learningapps.org, edugames.uz, metodlar, ta'lim, samaradorligi.

O'qituvchilarni darsdan boshqa ishlarga jalb etish – bu davlatga, kelajakka xiyonat.

Sh.Mirziyoyev

Milliy istiqloq tufayli jadal rivojlanib borayotgan mamlakatimizda yosh avlodning bilim darajasini jahon andozalari talablariga javob beradigan, fan-texnika yangiliklaridan xabardor, mustaqil fikr olayadigan, hayotga dadillik bilan kirisha olayadigan, tadbirkor, ma'naviy jihatdan barkamol vazifalardan hisoblanadi. Bu esa, avvalo, pedagogika fanini, ta'lim-tarbiya tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida (1997-y.) ta'lim davlatimiz ijtimoiy taraqqiyotida ustuvor soha deb e'lon qilinishi pedagogika fani zimmasiga mas'uliyatli ulug'vor vazifalarni yukladi.

Shunchaki bilim olishning o'zi yetarli emas; uni qo'llash yo'lini topishingiz kerak. Shunchaki uni xohlashning o'zi yetarli emas; buni qilishingiz kerak.

(Gyote)

“Bilimga eltuvchi yagona yo'l – bu faoliyatdir”.

Bernard Shou – ingliz dramaturgi,

Nobel mukofoti laureati

**Pedagogik texnologiya** ta'lim – tarbiya jarayonini yuksak mahorat san'at bilan boshqarishdir.

Pedagogik o'qitish texnologiyalari tizimli kategoriyalar bo'lib, ularning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- ❖ o'quv maqsadlari;
- ❖ o'quv mazmuni;
- ❖ pedagogik o'zaro ta'sir vositalari;
- ❖ o'quv jarayonini tashkil etish;
- ❖ o'quvchi, o'qituvchi;
- ❖ faoliyat natijalari.

Pedagogik texnologiya - bu shakllar, usullar, texnikalar, o'qitish texnikalari va ta'lim resurslarining ijtimoiy to'plami va joylashuvini belgilovchi psixologik va pedagogik tamoyillar to'plami; u pedagogik jarayonning asosiy vositasidir

(B. T. Lixachev).

Pedagogik texnologiya bu ta'lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan, texnik va inson resurslari hamda ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda, o'qitish va o'rganishning butun jarayonini qo'llash va belgilashning tizimli usuli (YuNESKO).[3.7]

Hozirgi kunda uning mavjud ta'riflari juda ko'p va xilma-xildir: 1. Texnologiya biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llaniladigan usullar va yo'llar yig'indisi (Izohli lug'at). 2 Texnologiya – ishlov berish, ahvolni o'zgartirish san'ati, mahorati, qobiliyati, metodlar yig'indisi (V.M.Shepel). 3 PT – o'qitishning, ta'limning shakllari, metodlari, usullari, yo'llari tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'indisi va komponovkasi (joylashuvi)ni belgilovchi psixologik tartiblar (ustanovka)lar majmuasiu PJning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat (B.T.Lixachyov).

"Gamifikatsiya" hozirgi kunda juda mashhur. Shuningdek, o'yinlashtirish (o'yin) deb ham ataladi. Bu atamalarning barchasi o'yin elementlaridan, o'yin mexanikasidan va texnologiyalardan o'yin bo'lmagan kontekstda — real hayotdagi maqsadlarga erishish uchun foydalanishni anglatadi. Masalan, ishda, o'qishda va kundalik hayotda.

Ta'limda o'yinlashtirish nafaqat tayyor o'yinlardan foydalanishni, balki butun ta'lim jarayonini o'yinga aylantirishni ham anglatadi.


Masalan, onlayn ta'lim platformasida foydalanuvchilar uy vazifalarini bajarganliklari uchun ball to'playdilar va bu ball talabalarni reytinglash uchun ishlatiladi. Reytingda birinchi o'rinni egallash va ijtimoiy guruhga ustunlik qilish istagi ko'proq topshiriqlarni bajarish va ball to'plash uchun rag'batlantiradi. O'rganishga o'yinga asoslangan yondashuv an'anaviy usullarga nisbatan o'zining samaradorligini allaqachon isbotlagan. O'yin orqali zerikarli vazifalar qiziqarli bo'lib, murakkablari esa soddalashadi.

O'yinlar talabalarni jarayonga jalb qiladi va ma'lumotni tushunishni osonlashtiradi.[4.7]

Nima uchun ta'limiy o'yinlar zarur?


1. Bilimlarni sinab ko'rish;
2. O'quvchilarni qiziqtirish va ularda qiziqish uyg'otish;
3. O'quvchilarga tanish bo'lgan narsalarda g'ayrioddiylikni ko'rishga yordam berish;
4. O'quvchilarga fikrlash imkoniyatini berish;
5. O'quvchilarni rag'batlantirish.

Wordwall. Interaktiv materiallar yaratish uchun ko'p funksiyali onlayn platforma. Ish jarayoni LearningApps bilan deyarli bir xil. Lekin, Wordwall yuqori sifatli shablonlar va funksiyalarni, shuningdek, mashqlarni yaratishni yanada osonlashtiradi.



<https://wordwall.net/> [4.17]


Laerningapps. Bu ham ta'limiy paltforma bo'lib barcha fanlardan ko'plab shablonlarga ega bo'lgan ta'limiy sayt.



<https://learningapps.org/>

EduGames.uz. O‘zbek tilidagi ta’limiy platforma bo‘lib hozirgi vaqtda platformada 12 ta fanlardan namunaviy testlar mavjud. Foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tish orqali fan va mavzudan kelib chiqib o‘ziga moslagan holda yangi testlar kiritishu mumkin.

Platforma interfeysi 3 ta(o‘zbek,rus,ingliz) tilda ishlaydi. O‘yin guruh bo‘lib ishlashga moslashtirilgan.



<https://edugames.uz/game>

## Xulosa

Ta’lim jarayoniga gamifikasiya ya’ni o‘yinlashtirishni joriy etish bu o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ta’lim samaradorligini oshirish va rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Ushbu yuqorida berilgan ta’limiy platformalar orqali darslar sifati oshadi, va o‘zlashtirish samaradorligini oshirishda va o‘quvchilar darsga qiziqishini oshirishda katta yordam beradi.

## Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. — Toshkent, 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. *Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari*. — Toshkent, 2022.
3. Мезенцева О.И. *Современные педагогические технологии*. — Новосибирск, 2018.
4. Юркина Г.Д., Стахеева А.В. *Геймификация учебного процесса посредством реверсивного наставничества*. — Электросталь, 2024.